



“Kelajak soati” 9-mavzu

“Kelajak soati” darsining 5–8-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

9-mavzu: “O‘zbekiston va jahon”

Dars maqsadi: umumiy maqsad:

Annotatsiya: Vatanimizning xalqaro maydondagi nufuzi, mintaqadagi yetakchi roli va dunyo hamjamiyatida tutgan o‘rni “tinchlik va muzokara yo‘li” tamoyili, qo‘shni davlatlar bilan hamkorlik.

O‘quvchilarga O‘zbekistonning xalqaro maydondagi o‘rni, so‘nggi yillardagi tashqi siyosatdagi yutuqlari va tashabbuslari haqida tushuncha berish, Vatan manfaatlarini himoya qilish mas‘uliyatini anglatish, tinchlik, hamkorlik va yaxshi qo‘shnichilik qadriyatlarini mustahkamlash.

Aniq maqsadlar:

- O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi xalqaro obro‘-e‘tiborining oshish sabablarini tahlil qilish.

- “Tashqi siyosat konsepsiyasi”ning mazmuni va amaliy ahamiyatini tushuntirish.
- Tinchlik, hamkorlik va yaxshi qo‘shnichilik siyosatining mintaqaviy xavfsizlikdagi o‘rnini ochib berish.
- O‘quvchilarda xalqaro voqealarni tahlil qilish va fuqarolik mas’uliyati bilan yondashish ko‘nikmasini shakllantirish.
- Qo‘shni davlatlar haqida qisqa ma’lumotlarni xarita va faktlar asosida mustahkamlash.

Asosiy g‘oyalar: O‘zbekiston – Markaziy Osiyo yuragi va tinchlik tashabbuslari markazi. Tashqi siyosat – mustaqillikni mustahkamlash, iqtisodiy manfaatlarni rivojlantirish va mintaqaviy barqarorlikni ta’minlash vositasi. Hamkorlik va yaxshi qo‘shnichilik – tinchlik va taraqqiyot garovi. Har bir fuqaro, jumladan, o‘smir yoshdagilar ham Vatan manfaatlari uchun bilim va malaka orttirishi lozim.

Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchaviy darajada:

- O‘quvchi “xalqaro maydon”, “tashqi siyosat”, “mintaqaviy xavfsizlik” tushunchalarini biladi.
- O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillarini izohlay oladi.
- Qo‘shni davlatlar bilan hamkorlik misollarini tahlil qiladi.

2. Hissiy va qadriy yondashuvda:

- Vatan xalqaro maydonda yuksalayotganidan faxrlanish tuyg‘usi ortadi.
- Tinchlik, hamkorlik va birdamlik g‘oyalariga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi.

3. Amaliy ko‘nikmalarda:

- Xalqaro hodisalarni mustaqil tahlil qilishga urinadi.
- Xarita bilan ishlash orqali geografik bilimini kengaytiradi.

4. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

- Sinfda muloqot va bahs-munozara madaniyati shakllanadi.
- Mintaqaviy do'stlik va hamkorlik ruhini mustahkamlaydi.

Metapredmet: bu ta'limda o'quvchilarning faqat bir fan doirasida emas, **turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo'llay oladigan umumiy ko'nikmalarini** shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir.

Masalan, “ O‘zbekiston va jahon ” darsida:

- **Geografiya:** Markaziy Osiyo xartidasida davlatlarni topish.
- **Tarix:** Tashqi siyosatdagi muhim voqealar va sammitlar.
- **Adabiyot:** Tinchlik va do'stlik haqidagi maqollar, hikmatlar.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti xodimlari. www.milliytarbiya.uz

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli: Bilim beruvchi suhbat, taqdimot, videolavha, xarita bilan ishlash, interaktiv topshiriqlar, savol-javob.

Materiallar to'plami:

- Ssenariy
- Taqdimot
- Videomateriallar
- Interaktiv xarita
- Qo'shni davlatlar haqidagi qisqa ma'lumotlar

Dars tuzilishi 1 qism. Motivatsion

Darsning birinchi qismining maqsadi – o‘quvchilarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir. 5–9-sinf o‘quvchilarining kelgusi faoliyatiga bo‘lgan motivatsiya mavzuni aks ettiruvchi videolavha, xalqaro sammitdan parchalar yoki Prezident nutqidan iqtiboslarni ko‘rish va ular yuzasidan suhbatlashishga asoslanadi.

2-qism. Asosiy

Asosiy qismda o‘quvchilar darsning asosiy ma‘nolarini tushunish va ochib berishga yo‘naltiriladi. Shu maqsadda O‘zbekistonning xalqaro maydondagi o‘rni, tashqi siyosat konsepsiyasidagi tamoyillar, qo‘shni davlatlar bilan hamkorlik haqidagi tasviriy materiallar tahlil qilinadi, videolar ko‘riladi va mazmuni bo‘yicha savol-javob o‘tkaziladi.

3-qism. Yakuniy

Dars g‘oyalarini umumlashtirish va mashg‘ulotga yakun yasash. O‘quvchilar bilan “O‘zbekiston – Markaziy Osiyo yuragi” g‘oyasi bo‘yicha xulosa chiqariladi, haftaning hikmati o‘qiladi hamda uyga vazifa beriladi.

Dars ssenariysi

1. KIRISH. Motivatsion qism(10 daqiqa)

*Dars boshlanishidan oldin sinf xonalari **dunyo xaritasi, globus, O‘zbekiston bayrog‘i** bilan bezaladi. Past ovozda milliy kuy yoki vatanparvarlikka undovchi qo‘shiq yangrab turishi maqsadga muvofiq.*

O‘qituvchi:

Assalomu alaykum, aziz o‘quvchilar!

Bir daqiqa tasavvur qiling: siz Tokio, London yoki Dubaydasiz. Bir xalqaro tadbirda yoshlar bilan suhbatlashyapsiz va kimdir sizdan: “O‘zbekiston qayerda joylashgan? U qanday mamlakat?” deb so‘raydi.

Siz nima deb javob berasiz? Faqat xaritaga ishora qilasizmi yoki faxr bilan: “Bu – mening yurtim, dunyo bilan teng qadam tashlayotgan, tinchlik va taraqqiyot bayrog‘ini baland ko‘targan davlat” – deb javob berasizmi?

Bugungi darsimizda aynan shu savolga javob izlaymiz. Biz o‘z yurtimizning dunyodagi nufuzini his qilishni, uning siyosiy, ilmiy, madaniy, tarixiy va hokazo sohalardagi yutuqlarini anglashni o‘rganamiz.

Lekin avval bir kichik sinov:

Doskadagi O‘zbekiston xaritasiga ishora qilib

Kimlar O‘zbekiston bilan chegaradosh davlatlarni to‘g‘ri ayta oladi?

Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston, Afg‘oniston, Qirg‘iziston

O‘zbekistonda nechta ma‘muriy hudud bor?

(14 ta: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahri)

Qaysi viloyat maydon jihatdan eng katta?

(Navoiy viloyati, 100.800 kv.km)

Qaysi viloyatda aholi eng zich yashaydi?

(Andijon viloyati, bir kvadrat kilometrda 804,9 kishi)

Mamlakatimizda nechta tuman va shahar bor?

(208 ta tuman va shahar bor)

O‘qituvchi: Bu savollar orqali biz faqat geografiyani emas, o‘zligimizni bilib olamiz. Chunki har bir joy (tuman, shahar, mahalla, qishloq) nomi – bu tarix, bu meros, bu biz bilgan Vatanning bir bo‘lagi.

Kelinglar, biz o‘z yurtimizni qanchalik bilamiz, O‘zbekistonning ma‘muriy-hududiy tuzilishi haqida qanday ma‘lumotlarga egamiz degan savollarga javob topamiz. Ya‘ni O‘zbekiston hududi va xaritasi haqidagi bilimlarimizni tekshirish uchun videojumboqqa e‘tibor qaratamiz.

Ekranga qaraymiz.

Vizual kontent.

O'zbekiston xaritasini qay darajada bilasiz? (jumboq)

O'zbekistonning xaritasi. Javoblaringizni tekshiring!

O'qituvchi (*ilhomlantiruvchi ovozda*):

Bolalar, bugun O'zbekiston nomi butun dunyoda, katta xalqaro tashkilotlarning minbarlarida, Olimpiada arenalarda, xalqaro anjumanlarda yangramoqda. Dunyo xaritasidagi katta davlatlar orasida ham yurtimiz tinchlik tashabbuslari, ilmiy kashfiyotlari, yosh iqtidorlari bilan tanilyapti. Demak, mamlakatimizda har biringiz uchun ulkan imkoniyatlar bor.

Demak, ishonch bilan ayta olamizki, O'zbekiston faqat xaritadagi joy emas, u dunyo sahnasidagi faol ishtirokchi.

Dars oxirida sizlar ham o'zingizning kichik shioringizni yaratasiz: "Mening O'zbekiston haqidagi g'ururim nimada?"

Shunday qilib, yurtimiz va jahon o'rtasidagi ko'prikn birgalikda kashf etamiz. Tayyormisiz?

(Sinf javob beradi: "Haaa!")

O'qituvchi:

Aziz o'quvchilar, orangizda kim samolyotda uchgan?

Bolalalar orasida shundaylar bo'lsa, qo'l ko'tarishi so'raladi. Qo'l ko'targanlardan aeroport haqida, u yerga birinchi marta borganida nima his qilgani haqida so'rash mumkin.

O'qituvchi:

Bolajonlar, dunyo globallashib, mamlakatlar bir-biriga yaqinlashib boryapti. Ya'ni odamlar ko'p sayohat qilishyapti, sayohat qilish, xorijga o'qish yo ishlashga borish tobora oddiy hol bo'lib boryapti. Sizlar ham kun kelib albatta xorijga borasizlar. Shunda xalqaro aeroportdan uchishinglar mumkin. Aeroportda sizlarni nima kutib turibdi? Keling, shu mamlakatimizning darvozasi bo'lgan aeroportimizdan reportaj ko'ramiz.

Vizual kontent:

Toshkent xalqaro aeroportining aerovokzal kompleksi

Video muhokama qilinadi (2 daqiqa)

ASOSIY QISM. (25 daqiqa)

O'qituvchi:

Aziz o'quvchilar! Sizlar ham sezyapsizmi? Keyingi yillarda **O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi**, dunyodagi obro'-e'tibori ortib bormoqda. Bu qanday holatlarda namoyon bo'layapti? Keling, birgalikda tushunib olaylik.

Birinchidan, geosiyosatda O'zbekistonning o'rne juda muhim. O'zbekiston Markaziy Osiyoning yuragi deb ataladi. Chunki biz mintaqaning markazida joylashganmiz, beshta davlat bilan chegaradoshmiz va ularning barchasi bilan do'stona aloqalar o'rnatganmiz.

Ikkinchidan, tashqi siyosatda kuzatuvchi emas, tashabbuskor, faol mamlakatga aylanib boryapmiz. Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yangi – o'zaro hamkorlikka asoslangan tashqi siyosatga asos soldi.

O'zbekiston bugun Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, Islom Hamkorlik Tashkiloti kabi ko'plab xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qiladi. O'zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Markaziy Osiyo ruhi", "Transafg'on transport yo'lagi", "Yoshlar diplomatiyasi" kabi tashabbuslar dunyo siyosatida yangicha yondashuv sifatida qabul qilinmoqda.

Bu tashabbuslar nafaqat Yangi O'zbekistonni, balki Yangi Markaziy Osiyoni yaratmoqda. O'zbekistonga ishonch – Markaziy Osiyoga ishonchga aylanyapti. Bugun yangi Markaziy Osiyo jahonni o'ziga tortadigan mintaqaga aylandi.



Shu yilning aprel oyi boshida bo'lib o'tgan Samarqanddagi "Markaziy Osiyo – Yevropa ittifoqi" Sammiti buning isboti bo'ldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Samarqand Sammiti haqida: **"Bu sammit ko'p qirrali munosabatlarning yangi bosqichga o'tish nuqtasi bo'ladi!"** – deb ta'kidladi. Bu sammit Markaziy Osiyo uchun yangi davrni boshlab berdi.



Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula xonim **12 milliard yevrolik investitsiya** paketini e'lon qildi. Ya'ni yurtimizga shuncha investitsiya kirib keladi, buning natijasida iqtisodimiz o'sadi, farovonligimiz oshadi. Bu O'zbekistonning tashqi siyosatdagi g'alabasi bo'lib, yurtimizga foyda keltiradi.

Masalan, Navoiy viloyatidagi 500 MVt quvvatdagi quyosh elektr stansiyasi mintaqadagi eng yirik loyihalardan biri bo'lib, xalqaro investorlar ishtirokida amalga oshirilmoqda.

Uchinchidan, O'zbekiston xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikka qaratilgan tashabbuslari bilan tanilmoqda. O'zbekiston hozir dunyoda, ayniqsa, biz yashab turgan mintaqada – Markaziy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun ko'plab tashabbuslarni ilgari surmoqda. Yon qo'shnimiz Afg'onistonda tinchlik bo'lishi uchun Prezidentimiz BMT minbaridan turib jon kuydirib gapirdilar. Yoki qo'shni Tojikiston va Qirg'iziston mamlakatlari o'rtasidagi do'stona munosabatlarni tiklash uchun aynan O'zbekiston vositachilik qildi. Jahonning qaynoq nuqtalarida bo'layotgan mojarolarni ham muzokaralar yo'li bilan tinch hal etishni targ'ib qilamiz.

Ushbu oqilona tashqi siyosat tufayli biz nimalarga erishmoqdamiz?

Dunyodagi o'rnimiz mustahkamlandi.

Qo'shnilar bilan yaxshi aloqalar o'rnatildi.

Tashqi iqtisodiy foyda, ya'ni savdo, investitsiya kabi sohalar rivojlanmoqda.

Tinchlik va barqarorlik mustahkamlanmoqda.

O'qituvchi:

Azizlar, endi O'zbekistonning dunyodagi o'rnini mustahkamlash uchun muhim bo'lgan diplomatlarni tayyorlaydigan Universitet haqida videoni tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga sayohat

O'qituvchi:

Aziz o'quvchilar! O'zbekiston nafaqat tashqi siyosat, balki ilm-fan, sport, san'at sohalarida ham dunyo mamlakatlari bilan yaqindan aloqalar o'rnatyapti va yutuqlarga erishmoqda.

Ilm-fanda qanday yutuqlarimiz

Bugun dunyoning top universitetlarida yuzlab o'zbekistonlik yoshlar tahsil olyapti va tadqiqotlar qilyapti.

Masalan, Botir Qobilov, 2024-yilda Harvard universitetida raqamli iqtisodiyot sohasida tadqiqotlar qilishni boshladi.

Shuningdek, mamlakatimiz ilmiy tadqiqot institutlari ham jahonning yetakchi universitetlari bilan hamkorlikda loyihalar qilishmoqda. Masalan, genetik olimlarimiz Harvard universiteti bilan hamkorlikda loyiha qilishyapti. Yaqinda Buyuk Britaniyaning Oksford universitetida o'zbekshunoslik dasturi ochildi, uning ochilish marosimida Prezident Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva ishtirok etdi.



Mamlakatimiz yoshlari, maktab o'quvchilari xalqaro fan olimpiadalarida yuqori natijalarni qayd etishyapti. Masalan, bu yilgi xalqaro kimyo olimpiadasida O'zbekiston terma jamoasi uchta oltin, ikkita kumush va ikkita bronza medal olishdi. Bu tariximizdagi rekord natija!

San'atdagi yutuqlarimiz

O'zbekiston san'ati bugun xalqaro sahnalarda jarang sochmoqda. Pianist Behzod Abduraimov London xalqaro pianino musobaqasi va boshqa bir necha xalqaro pianino musobaqalari g'olibi bo'ldi.



Dirijyor Aziz Shohakimov esa Trasburg filarmoniyasining direktori bo‘lib ishlamoqda.



O‘zbekistonlik dizayner va arxitektor Taxmina Turdialiyeva Britaniya qirolligi tomonidan chop etilgan “Me’morlik olamini zabt etgan 100 ayol” kitobidan o‘rin oldi.



Sportdagi yutuqlarimiz

Sportda ham muvaffaqiyatlarimiz katta. Diyora Keldiyorova, Oksana Chusovitina, Ulug‘bek Rashitov kabi sportchilar O‘zbekiston bayrog‘ini jahon arenalarida baland ko‘tardilar.

Bolajonlar, kelinglar hozir olimpiya chempionimiz Diyora Keldiyorovanning xalqaro maydonda O‘zbekiston nomini va bayrog‘ini baland ko‘tarib chiqqani haqidagi hikoyasini o‘zidan eshitamiz.

Vizual kontent:

“Fransuzlar biz bilan suratga tushgan” – Diyora Keldiyorova

Aziz o‘quvchilar, o‘ylaymanki, bugungi darsimiz hammangiz uchun qiziq bo‘ldi. Endi sizlar yuqoridagi kabi ma‘lumotlarni bilib borish orqali “O‘zbekiston qanday davlat?” degan savolga to‘liq va aniq javob bera olasizlar.

3. YAKUNIY QISM (10 daqiqa)

O‘qituvchi:

Aziz bolalar, bugungi darsimiz yakunida sizlar O‘zbekistonning jahon sahnasidagi o‘rnini yanada chuqurroq tushundingiz, deb o‘ylayman. Endi sizlar daftaringizga: “O‘zbekiston qanday mamlakat?” degan savolga bitta gap bilan javob yozishingizni so‘rayman. Yozganlaringizni birma-bir o‘qib bering.

Eng original fikr egalarini rag‘batlantiramiz!

(Bolalar o‘z shiorlarini yozishadi, sinfda o‘qishadi. Dars “Biz tinchlik tarafdorimiz” nomli qisqa fleshmob bilan yakunlanadi.)